

## O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA AXMADJON SAHHOF IJODI

**Burxanov Zavqiddin Sherali o‘g‘li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim  
yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Jahon adabiyotshunosligida biror bir xalq adabiy-estetik ideali yuzasidan xulosa chiqarishda barcha davr ijodkorlari merosi asosida umumlashma va xulosalar bildirish muhim sanaladi. Zero, har bir xalqning adabiy-estetik idealining badiiy ifodasining shakli o‘zgarib turadi.

**Kalit so‘zlar:** Ahmadjon Sahhof Muhammad bobo o‘g‘li, adabiyot, adabiyotshunoslik, qo‘lyozma.

### **АННОТАЦИЯ**

В мировой литературоведении, делая выводы о литературно-эстетическом идеале какого-либо народа, важно делать обобщения и выводы на основе наследия творцов всех эпох. Ведь меняется форма художественного выражения литературно-эстетического идеала каждого народа.

**Ключевые слова:** Ахмаджон Саххоф Мухаммад баба сын, литература, литературоведение, рукопись.

### **ABSTRACT**

In world literary criticism, it is important to summarize and draw conclusions on the basis of the heritage of the creators of all times when drawing conclusions on the literary and aesthetic ideal of a people. After all, the form of artistic expression of the literary and aesthetic ideal of each people is changing.

**Keywords:** Ahmadjan Sahhof Muhammad Baba Oglu, literature, literary studies, manuscript.

Dunyo ilmiy jamoatchiligi ijodkor adabiy-estetik ideali, asarlarining g‘oyaviy sarchashmalari, ularning matniy qiyosiy va tekstologik tadqiqni amalga oshirish otabobolarimiz qoldirgan noyob qo‘lyozma manbalarning keng miqyosda o‘rganilayotgani bugungi o‘zbek matnshunosligi va manbashunosligining xalqaro doiralarda keng ko‘lamli tadqiqotlarga asos bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Qo‘lyozma manbalarni aniqlash, tahlil va tadqiq etish nafaqat o‘tmishimiz, balki so‘nggi yillardagi tariximizning noma’lum sahifalarini yorituvchi qimmatli yodgorlik sifatida ham matnshunoslik va manbashunoslik fani oldiga dolzarb vazifalar qo‘yadi.

Bu orqali «...Avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning haèti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, èsh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixon ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko‘zda tutilgan»<sup>15</sup>

Jahon adabiyotshunosligida biror bir xalq adabiy-estetik ideali yuzasidan xulosa chiqarishda barcha davr ijodkorlari merosi asosida umumlashma va xulosalar bildirish muhim sanaladi. Zero, har bir xalqning adabiy-estetik idealining badiiy ifodasining shakli o‘zgarib turadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda adabiy merosi yetarli darajada o‘rganilmay kelayotgan ijodkorlar shaxsiyati va asarlari manbalarini tadqiq etish, ular yuzasidan xulosalar bildirish, o‘z navbatida, mazkur ijodkorlar asarlarining o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rnini ko‘rsatishga oid manbashunoslik va matnshunosli tadqiqotlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu sohadagi tadqiqotlarning uzviy bir qismi sifatida XX asrning birinchi choragida an’anaviy diniy-ma’rifiy va islom dini

<sup>15</sup> Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. –Тошкент, 2017, 4 август.

bian bog‘liq mavzularni kuylagan mualliflarning merosni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlarningning ko‘lami oshirishini qayd etish zarur.

O‘tgan asrda yashab ijod qilgan XIX asr oxir – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Ahmadjon Sahhof Muhammad bobo o‘g‘lini (1892 - Marg‘ilon - 1969)<sup>16</sup> ham qayd qilingan kabi ijodkorlar sirasiga kiritish mumkin. Zero, ‘Ma’rifat fidoiyalarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi’. Tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati Ahmadjon Sahhof shaxsiyati va ijodiy merosi manbalarini aniqlash, ularning adabiy manba sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatish, matniy qiyosini amalga oshirish, ulardagi mumtoz adabiy an’alar, diniy-ma’rifiy va islom dini bilan bog‘liq mavzularning XX asr ikkinchi yarmida ham kuylaganligi yuzasidan xulosalar bildiridi ahamiyatli ekanligi bilan belgilanadi. Ahmadjon Sahhof hayoti va ijodiy merosi to‘g‘risida ma’lumotlar unchalik ko‘p emas. Jumladan, ijodkor haqidagi mu’lumotlar uning O‘z RFA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan 12192 raqali “**شاعر مجموعه**”–“**صحاف احمدجان**”–“Majmuai ash’ori Ahmadjon Sahhof”<sup>17</sup> qo‘lyozmasida muallifning o‘zi tomonidan yozilgan qaydlar mavjud. Shuningdek, mazkur qo‘lyozmaning 54a-58b varaqlarida mazkur institut ilmiy xodimi Abdulla Nosirov tomoinadan yozib qoldirilgan qaydlar uchraydi. Yana qayd qilingan qo‘lyozmaning 70a-varag‘ida A.Nosirov Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan Ahmadjon Sahhof qalamiga mansub qo‘lyozmalar inventar’ raqamlarini qayd qilgan. 12192 qo‘lyozmaga Ahmadjon Saffhofning g‘azal, ruboiy va masnaviy kabi janrlardagi she’rlari kirgan. Bulardan tashqari, Ahmadjon Sahhof qo‘lyozmalarida o‘zbek adabiyoti vakillari ijodiyoti va o‘zbek xalqi tarixga oid ma’lumotlarni ham jamlagan. Muqimiy va Furqat kabi shoirlarning she’rlari devonini tuzgan. Ijodkorning hayot yo‘li asarlari qo‘lyozmalari, asarlarining ko‘lami va mavzu doirasi hozirga qadar o‘rganilmaganligi ko‘rishimiz mumkin. Axmadjon Sahhof ijodini o‘rganish uning adabiyot sahasida

<sup>16</sup> O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi

<sup>17</sup> 12192 raqali –“**مجموعه اشعار احمدجان صحاف**”–“Majmuai ash’ori Ahmadjon Sahhof”{54a-58-b}

amalga oshirilgan ishlarini qolaversa Qo‘qon adabiy muhiti haqida qimmatbaho ma’lumotlarni bilishimiz mumkin.

Bundan tashqari Ahmadjon Sahhofning O‘zRFA Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan asarlari qo‘lyozmalari o‘rganish orqali yozuvchining qilgan ishlari haqida yanada ko‘proq ma’lumot olishimiz mumkin. Yozuvchi tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarni o‘rganish orqali adabiyotimizdagi yana bir mutafakkir haqida adabiyot ixlosmandlariga ma’lumot berishimiz mumkin hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976.
2. O‘zbek adabiyoti. To‘rt tomlik, I tom, Toshkent, 1977.
3. Mirzayev T. Ma’naviy-madaniy me’rosni o‘rganishning ilmiy-metodologik masalalari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1997.